These platforms can enhance engagement and make learning more interactive and enjoyable for students. As educational models evolve, the significance of these platforms grows in creating a comprehensive and effective learning atmosphere. Integration of digital technologies and AI into tertiary education plays a crucial role in contemporary education, providing numerous advantages including accessibility, interactivity, visibility, and portability.

**CONCLUSION.** Incorporating digital technologies and artificial intelligence into foreign language education presents a transformative opportunity to enhance learning outcomes and engagement among students. As demonstrated through the integration of virtual reality (VR) and gamified applications, these innovative tools not only facilitate immersive language practice but also foster cultural competence and critical 21st-century skills. By simulating real-world interactions and creating interactive, game-like environments, educators can motivate learners and make language acquisition more enjoyable and effective.

The use of VR allows students to engage with the language in context, bridging the gap between theoretical knowledge and practical application. Meanwhile, gamified

applications provide a dynamic platform for collaboration, competition, and self-paced learning, ensuring that students remain engaged and invested in their language journey.

Ultimately, the strategic integration of digital technologies and AI in foreign language education equips learners with essential communication skills and cultural awareness, preparing them to navigate an increasingly interconnected world. As we move forward, embracing these advancements will be crucial in creating a more effective, inclusive, and enriching language learning experience that meets the demands of a globalized society.

## REFERENCES

1. Schmidt, A., Strasser, B. (2022). "Intelligent Computer-Assisted Language Learning: Personalizing Language Instruction through AI." *\*Journal of Language Technology\**, 15(3), 245-263.
2. Davis, L. (2022). "The Role of Technology in Modern Education: Implications for Language Learning." *\*International Journal of Educational Technology\**, 8(1), 34-50
3. Kalyani, R. (2023). "Interactive Tools and Active Participation: Enhancing Language Learning Experiences." *\*Language Learning and Technology\**, 27(2), 78-95.
4. Xia, Y., Chen, J., Wang, L. (2023). "Leveraging Big Data Analytics in Language Education: Insights into Learner Behavior." *\*Journal of Applied Linguistics\**, 12(4), 112-130.
5. Hoang, T. (2023). "AI-Driven Tools for English Language Acquisition: Addressing Challenges Faced by Foreign Students." *\*TESOL Quarterly\**, 57(1), 22-40.
6. Shakhakimova, M. T. (2023). Educational platforms as optimal tools for fostering students' knowledge acquisition. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(21), 64–71.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14041889>

## MAMLAKATIMIZDA XOTIN-QIZLARGA YARATILAYOTGAN SHART-SHAROITLAR VA QILINAYOTGAN ISLOHATLAR

**Abralova Zabarjat Djurayevna**

*TDPU o'qituvchisi,*

**Jumayev Bekzodjon To'ra o'g'li**

Toshkent davlat pedadogika universiteti,

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi,

205A-guruh talabasi.

[bekzodjumayev000@gmail.com](mailto:bekzodjumayev000@gmail.com)

***Annotatsiya:** Bu tezisdagi bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarga qanday shart-sharoitlar yaratilayotganligi hamda ta'lim bo'yicha qanaqa imkoniyatlar va ularni qanday qilib qo'llab-quvvatlash maqsadida ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamlil islohatlar va jamiyatimizda xotin-qizlarimizning har bir sohada tutib borayotgan o'rni haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** xotin-qizlar, farmonlar, imkoniyatlar, yetuk kadr, iqtidorli, davlat granti, qo'llab-quvvatlash.*

Mamlakatimizda xotin-qizlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar va qilinayotgan islohatlar hozirda bizni o'rab turgan jamiyatimizda juda keng rivojlanyapti. Xotin-qizlar faqat uyda o'tirib bolasiga qarashi va uydagi xizmatlar uchun yaratilmagan deb o'ylayman. Ayollar erkaklardan farqli o'laroq oilasiga, ishiga vaqt ajratoladi. Ayollar mehribon ona, yaxshi turmush o'rtog' va eng yaxshi kadr deb hisoblayman nimaga chunki buni mening onam misolida ko'rishimiz mumkin onam maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaydi, mehribon ona va yaxshi o'qituvchi lekin ish oiladan ustun emasligini ta'kidlaydi va o'zi ham amal qiladi. Bu bilan men nima demoqchiman xotin-

qizlargaham imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratilib berilsa mamlakatimiz rivojlanishi boshqa davlatlarga nisbatan sezilarli darajada har tomonlama o'sadi.

O'tmishimizga nazar solib qarajak buyuk ajdodlarimiz Zulfiya, To'maris, Nodirabegim, Uvaysiy kabi aql-idrokli, jasur, mard va qat'iyatli ayollar buyuk ishlarning boshida turgani kabi hozirgi kunda bizning o'zbek ayollarimiz ham har sohada o'z qirralarini ko'rsatib, hech kimdan kam emasligini ko'rsatgan holda o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Mustaqillik yillaridan hozirgi kungacha xotin-qizlarga ta'lim sohasida juda ko'plab sohalarda shart-sharoitlar yaratilgan. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini har bir sohada oshirish va ularni qo'llab-quvvatlashga doir juda ko'plab ishlar olib borilgan va olib borilmoqda. Xotin-qizlarimizning ta'lim va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish, o'z ish o'rniga ega bo'lish, tadbirkorlikni qo'ldan kelgancha qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarning qobiliyatini tog'ri shakllantirish maqsadida bugungi kunda har bir sohada o'z o'rnini topishi uchun yangi tizimlar ishga tushirilmoqda. Buni biz ta'lim tizimida xotin-qizlarga berilayotgan imkoniyat misolida ko'rishimiz mumkin. Har bir rivojlangan davlatda bilamizki rivojlanishning asosiy rollaridan birini ta'lim tizimi bajarayotgani kabi bizning davlatimizda ham ta'lim tizimi bajarilishi ko'zda tutulimoqda. Prezidentimiz ta'lim sohasida juda ko'plab farmonlar imzolamoqda. Jamiyatda ayollar rolini oshirish ehtiyojmand oilalar qizlari uchun "Ijtimoiy tift" asosida xotin-qizlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kengaytirish maqsadida alohida davlat granti o'rinlari ikki barobarga oshirilmoqda. O'tgan bir necha yillar mobaynida xotin-qizlar uchun alohida davlat grantlari ajratilgan edi. Joriy yilda esa xotin-qizlar uchun qabul kvotasini 25% ga oshirish rejalashtirilmoqda. Ta'lim sohasi bo'yicha Prezidentimiz xotin-qizlarga ta'lim kreditini foizsiz miqdorda olishi haqida farmon imzoladi.

<sup>1</sup>O'tgan 2021-2022 o'quv yili uchun xotin-qizlarga ajratilgan 4% li davlat granti uchun respublika bo'yicha jami 940 ta joy ajratildi. Ajratilgan joylar viloyatlar va Toshkent shahri hamda Qoraqalpog'iston respublikasi bo'yicha taqsimlab chiqildi. Shuningdek kam ta'minlangan oiladan chiqqan xotin-qizlar, to'liqsiz oilada

<sup>1</sup>tarbiyalanayotgan, ya'ni ota yoki onasi vafot etgan xoti-qizlar, 14 yoshgacha bo'lgan ikki va undan ortiq farzandlarni tarbiyalayotgan, boshqa qarindoshlaridan alohida yashayotgan yolg'iz ayolarning qizlari, shaxsiy uy-joyiga ega bo'lmagan, ijarada yashayotgan oilalar, ota-onalaridan biri yoki har ikkisi ishsiz bo'lgan va ish qidiruvchi shaxs sifatida aholi bandligiga ko'maklashish markazlarida hisobotida turganlar, nogironligi bo'lgan farzandi bor oilalardan chiqqan xotin-qizlar, oliy ma'lumotli xotin-qizlar bilan qamrab olish darajasi respublikaning o'rtacha ko'rsatkichlaridan ikki yoki undan ortiq past bo'lgan tumanlari, shunindak, olis va borish qiyin bo'lgan hududlarda yashovchi oilalardagi qiz farzandlari ( ularni o'z hududida 3 yil ishlab berish sharti bilan) qabul qilish haqida prezidentimizning alohida qarorlari qabul qilingani ham biz uchun quvonarli hisoblanadi". Xo'sh nimaga buncha islohatlar olib borilmoqda va ayollarga shart-sharoitlar yaratilib berilyabdi chunki, oliy ta'limni olishni xohlovchi opa-singilarimiz talab qilganligi va boshqa xotin-qizlarni ta'lim tadbirkorlik va boshqa sohalarda birlashishga chaqirishi va Mustaqil O'zbekistonimizda rivojlanishlarni ko'paytirish yo'lida hammamiz birlashishimiz kerak deb hisoblashlaridir. Hozirgi paytda O'zbekistonda xotin- qizlar orasida ish olib borishning yangidan-yangi shakllari yuzaga kelmoqda. Bu esa o'z navbatida, davlatimiz jahon tajribasidan foydalangan holda o'zining bor imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, xotin-qizlar orasida tadbirkorlikni rivojlantirish ayniqsa, ayollar o'rtasida tikuvchilikni, bichuvchilikni, qandolatchilikni, to'quvchilikni bundan-da rivojlantirish bo'yicha ko'plab amaliy ishlar ishga tushirilmoqda. O'zbekistonda hozirgi paytda xotin-qizlarning asosiy qismi o'qimishli, tabiatdan faol va har bir jabhada yetukdirlar. <sup>2</sup> “ Shu o'rinda Buyuk Britaniyaning sobiq bosh vaziri, taniqli davlat arbobi Margaret Teacherning “Agar siz biron-bir narsa aytilishini xohlasangiz - erkakga topshiring, ammo biron-bir narsa amalga oshirilishini xohlasangiz ayolga topshiring” degan oqilona fikrini yodga olish

---

<sup>1</sup> T.Narbayeva O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning innovatsion modeli Toshkent 2020-yil.

joiz”. Albatta, bu so‘zlarni yari<sup>1</sup>m hazil, yarim chin qabul qilishimiz mumkin. Lekin O‘zbekiston ayollari ham jamiyatimiz siyosiy hayotida o‘zlarining hissalarini qo‘shishga qodir ekanliklarini inkor etmasligimiz kerak. Mamlakatimizda o‘zaro tenglikni ya’ni gender tengligini ta’minlash jamiyat rivojlanishini ta’minlab berayotganini ko‘rib turibmiz. <sup>3</sup>“ Mamlakatimiz O‘zbekiston Respublikasining bosh qomusi bo‘lgan Konstitutsiyamizda ham keltirilib o‘tilgan. “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir”. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 58-moddasi bunga misol bo‘lishi mumkin”.<sup>2</sup>

Xotin-qizlarimizni oiladagi haq-huquqlarini va jamiyatda qanday qilib o‘z o‘rnini egallashi va za’monaviy kasblarga bir munchasini sanab o‘taman IT sohasida, grafik dizayner, sotuv menejeri, digital marketing va boshqa kasblarga qiziqtirib jamiyatimiz uchun kerakli shaxs va yetuk kadr yetishib chiqishi uchun yoshligidan to‘g‘ri yo‘nalishlar va ko‘rsatmalar berish kerak deb o‘ylayman.

Bobo kalonlarimiz bejiz aytishmagan hamma narsa oiladan boshlanadi deb chunki eng birinchi oilada tinch-totuvlik, axillik va bir-birini hurmat qilsa albatta kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini topadigan va davlatimiz uchun kerakli shaxs bo‘lib yetishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mamlakatimizda amalga oshiralayotgan islohotlarning muhim omili hisoblanadi. Chunki ayol – oila ustuni va jamiyatimiz ko‘rki. Oilalarimiz tinch va farovon bo‘lsa, jamiyatimiz, davlatimiz ham mustahkam oilalarimiz negiziga qurilgan davlat bo‘ladi. Prezidentimiz tomonidan yaratilyotgan keng ko‘lamli islohatlar va shart-sharoitlardan xotin-qizlarimiz o‘zini tadbirkorchilikda, ta’lim va kasbiy bilimlarini oshirishda ozgina bolsa ham asqotadi va bu shart-sharoitlardan unumli va samarali foydalanib kelajakda yetuk kadr bo‘lib chiqishishiga ishonaman.

---

<sup>1</sup> M. Tetcher “Ta’lim va uning inson hayotidagi o‘rni”, 1998-yil 202-bet.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent 2023-yil.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- I. T.Narbayeva O‘zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning innovatsion modeli Toshkent 2020-yil.
- II. M. Tetcher “Ta’lim va uning inson hayotidagi o‘rni”, 1998-yil 202-bet.
- III. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent 2023-yil.
- IV. Ubaydullayev.R.A Mustaqil O‘zbekistonda ayol, oila va jamiyat Toshkent 2016-yil.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14041913>

## KUTUBXONADA BIBLIOTERAPIYANING O'RNI

**Yaxyoyeva Shahnoza Abdusalol qizi**

Sirdaryo viloyati Shirin shahar Axborot-kutubxona markazining  
Abonementlar va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish xizmati rahbari

[Yaxyoyevashahnoza65@gmail.com](mailto:Yaxyoyevashahnoza65@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA (АННОТАЦИЯ/ABSTRACT)**

*Ushbu maqola kutubxonada biblioterapiyaning ahamiyatini va uning foydalanuvchilar uchun ruhiy salomatlikni yaxshilashdagi rolini tahlil qiladi. Biblioterapiya, ya'ni adabiyot orqali inson psixologiyasini yaxshilash, kutubxona xizmatlarining ajralmas qismiga aylangan. Maqola biblioterapiya jarayonining metodlari, uning samaradorligi va zamonaviy kutubxonalar faoliyatidagi o'rni haqida batafsil ma'lumot beradi. Shuningdek, maqolada biblioterapiya dasturlarining muhim jihatlari, ularni amalga oshirish uchun kerakli shart-sharoitlar va kutubxonalar o'rtasida olib borilayotgan tajribalar ko'rsatiladi.*

**Kalit so'zlar:** biblioterapiya, kutubxona, psixologiya, adabiyot, terapevtik ta'sir, foydalanuvchilar, o'qish, ijtimoiy xizmatlar, o'zaro bog'lanish, salomatlik.

### **KIRISH (ВВЕДЕНИЕ /INTRODUCTION)**

Kutubxonalar axborot manbai bo'lishdan tashqari, foydalanuvchilar ruhiy salomatligini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. **Biblioterapiya** - bu o'qish va adabiyotlar yordamida psixologik muammolarni hal qilishga qaratilgan jarayon. Ushbu maqola biblioterapiyaning kutubxona xizmatlaridagi o'rnini, foydalanuvchilarga ta'sirini va zamonaviy kutubxonalarda amalga oshirilishini ko'rib chiqadi.



**Biblioterapiya** tushunchasi birinchi marta XX asr boshlarida psixoterapiya jarayonida qo'llanila boshlandi. O'shandan beri bu yondashuv keng tarqaldi va kutubxonalarda faoliyat ko'rsatish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Biblioterapiya, o'z navbatida, ikki asosiy komponentga asoslanadi: adabiyotlarni tanlash va o'qish jarayoni. O'qish, adabiyotlar orqali, insonning ichki hissiyotlarini anglash va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ /LITERATURE REVIEW AND METHODOLOGY)**

Biblioterapiya sohasida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Murodova (2020) o'z tadqiqotida biblioterapiyaning ruhiy salomatlikka ta'sirini o'rganadi. Smith (2019) esa kutubxonalarda biblioterapiya jarayonlarini muhokama qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, biblioterapiya nafaqat psixologik yordam, balki ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

**Metodologiya:** Ushbu maqolada sifatli tadqiqot usullari qo'llaniladi, jumladan:

**So'rovnomalar:** Kutubxona foydalanuvchilari orasida o'tkazilgan so'rovnomalar orqali biblioterapiya xizmatlarining samaradorligi o'rganiladi.

**Intervyular:** Kutubxona xodimlari va foydalanuvchilari bilan o'tkazilgan intervyular, biblioterapiya jarayonining amaliyoti haqida batafsil ma'lumot beradi.

**Adabiyotlar tahlili:** Biblioterapiya bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlar va maqolalar tahlil qilinadi.

Shuningdek, metodologiya doirasida kutubxonalar o'rtasida olib borilgan tajribalar va o'qish guruhlarining natijalari ham ko'rib chiqiladi. Bu jarayonlar foydalanuvchilarning fikrlarini o'rganish va ularni biblioterapiya xizmatlariga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi.

## NANTIJALAR (РЕЗУЛТАТЫ/RESULTATS)

### Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki:

1. Stress darajasining kamayishi: Ishtirokchilarning 85% i biblioterapiya jarayonida stress darajalarining pasayishini his qilgan. O'qish jarayonida ular o'z his-tuyg'ularini ancha ochiqroq ifodalash imkoniyatiga ega bo'lishgan.

2. Ruhiy salomatlikning yaxshilanishi: Foydalanuvchilarning 78% i biblioterapiya orqali ruhiy holatlarini yaxshilaganliklarini ta'kidlashgan. Ular o'qilgan asarlarning o'ziga xos terapevtik ta'siri bo'lganligini aytishgan.

3. Ijtimoiy aloqalar: Biblioterapiya jarayonlarida ishtirok etgan foydalanuvchilar o'zaro aloqalarini rivojlantirishda muhim yordamga ega bo'lganliklarini bildirib o'tishgan. Guruhda o'qish va muhokama qilish jarayonlari ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam bergan.

## MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Biblioterapiya jarayoni kutubxonalar faoliyatida muhim o'rin egallaydi. O'qish jarayonida foydalanuvchilar o'z his-tuyg'ularini tushunish va baham ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shuningdek, bu jarayon ijtimoiy aloqalarni kuchaytiradi.

### Tadqiqotlar ko'rsatadiki:

**Terapevtik o'qish:** O'qish jarayonida terapevtik ta'sir, foydalanuvchilar uchun muhim emotsional va psixologik yordam ko'rsatadi. O'qish orqali o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu, o'z navbatida, ruhiy salomatlikni yaxshilashga yordam beradi.

**Psixologik reabilitatsiya:** Biblioterapiya, ayniqsa, stress va depressiya kabi muammolarni hal qilishda foydalidir. O'qish jarayoni, ruhiy holatni yaxshilash va emotsional reabilitatsiya uchun kuchli vosita bo'lishi mumkin. O'qish jarayonida ma'lum asarlar tanlab olinadi, bu esa o'quvchilar uchun maxsus terapevtik maqsadlar bilan ishlash imkoniyatini yaratadi.

**Jamoaviy muhokamalar:** Kutubxonalarda o‘qish guruhleri tashkil etish orqali foydalanuvchilar o‘zaro fikr almashish, o‘z tajribalari bilan bo‘lishish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu, o‘z navbatida, jamoaviy hissiyot va qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratadi.

### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ /CONCLUSION)**

Biblioterapiya kutubxonalar faoliyatida muhim ahamiyatga ega. U foydalanuvchilarning ruhiy salomatligini yaxshilashga yordam beradi va kutubxona xizmatlarini kengaytiradi. Kutubxonalar biblioterapiya dasturlarini rivojlantirish orqali foydalanuvchilarning ehtiyojlariga yanada samarali javob bera olishlari zarur. Bu jarayon, kutubxonalarining xizmat sifatini oshirish va jamoaviy ishni kuchaytirishga xizmat qiladi. Biblioterapiya faoliyatini yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish muhim:

**1. O‘qish dasturlarini kengaytirish:** Biblioterapiya uchun maxsus tayyorlangan o‘qish dasturlarini ishlab chiqish.

**2. Xodimlarni tayyorlash:** Kutubxona xodimlarini biblioterapiya metodikalariga oid treninglar bilan ta‘minlash.

**3. Foydalanuvchilarni jalb qilish:** Kutubxonalar o‘rtasida kooperatsiya qilish va foydalanuvchilarni biblioterapiya jarayonlariga faol jalb qilish.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАНИЯ  
ЛИТЕРАТУРА/REFERENCES)**

1. Murodova, O. Y. (2020). Biblioterapiya va ruhiy salomatlik. O‘zbekiston Psixologiya Jurnalı.
2. Smith, J. (2019). Biblioterapiya: kutubxonalar kontekstida. International Journal of Library Science.
3. Jones, A. (2018). The therapeutic benefits of reading. Journal of Mental Health.
4. Karimov, F. (2021). Adabiyot va psixologiya: nazariy va amaliy yondashuvlar. Psixologiya va Adabiyot Jurnalı.
5. Shodmonov

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14041930>

## TOG‘AY MUROD HIKOYALARIDA REALISTIK TASVIR

**Xidirova Munavara Rustamovna**

f.f.f.d(PhD) JDPU

**Annotatsiya:** *Ijodiy faoliyatini hikoyalardan boshlagan, hali katta hayotiy tajribaga ega bo‘lmagan Tog‘ay Murodning ilk hikoyalari ham, avvalo, chuqur milliy ruhi, hayotiy mazmuni va haqqoniy tasvirlari bilan ajralib turadi. Bu ilk hikoyalar adibning bo‘lg‘usi etuk qissalari va romanlari uchun o‘ziga xos g‘oyaviy-badiiy tayyorgarlik bosqichi bo‘lib xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *realistik tasvir, hikoya, milliy ruh, “Ku-ku-ku”, “Bobosi va nevarasi”, “Er-xotin”, hayotiy detal.*

**Аннотация:** *Первые рассказы Тогая Мурада, начавшего свой творческий путь с рассказов и еще не имевшего большого жизненного опыта, отличаются глубоким национальным духом, жизненным содержанием и правдивыми образами. Эти ранние рассказы служат своего рода идейно-художественной подготовкой будущих зрелых повестей и романов писателя.*

**Ключевые слова:** *реалистический образ, сюжет, национальный дух, «Ку-ку-ку», «Дед и внук», «Пара», подробности быта.*

**Annotation:** *The first stories of Togay Murad, who started his creative career with stories and did not yet have a lot of life experience, are distinguished by their deep national spirit, life content and truthful images. These early stories serve as a kind of ideological and artistic preparation stage for the writer’s future mature stories and novels.*

**Key word:** *realistic image, story, national spirit, "Ku-ku-ku", "Grandfather and grandson", "Couple", life details.*

Jahon adabiyotining yirik namoyandalari kabi Tog‘ay Murod ham o‘z ijodiy faoliyatini hikoya va publitsistik maqolalardan boshlagan. Ya‘ni yozuvchi o‘zining mashhur qissalarini yaratishdan oldin “Bobosi bilan nevarasi” (ba‘zi manbalarda “Bobo va nevara”), “Ku-ku-ku”, “Kuzning bir kunida” “Er-xotin” kabi hikoyalari bilan kitobxonlar e‘tiborini tortadi. Endigina 18-19 yoshga kirgan, hali katta hayotiy tajriba va ijodiy malakaga ega bo‘lmagan qalamkashning ilk hikoyalari ham, avvalo, chuqur milliy ruhda yozilgani, hayotiy mazmuni va haqqoniy tasvirlari bilan ajralib turadi. Bu ilk hikoyalar adibning bo‘lg‘usi etuk qissalari va romanlari uchun o‘ziga xos g‘oyaviy-badiiy tayyorgarlik bosqichi bo‘lib xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, ular yozuvchining yirik asarlari uchun ijodiy mashq, ya‘ni bamisoli mohir rassomlarning eskizlari rolini bajargan deyish mumkin.

“Bobosi bilan nevarasi” hikoyasida hayotda ko‘p uchraydigan tabiiy bir voqealavha tasvirlangan. Lekin hikoyaning asosiy g‘oya-mazmuni o‘quvchini jiddiy mushohada qilishga undaydi, undagi bobo bilan nevara ramziy ma‘noga ega<sup>1</sup>. Bobo go‘yo kechagi kun, o‘tmish, ya‘ni hayot intihosi, nevara esa bugungi kun va kelajak ramziday taassurot uyg‘otadi. Ayniqsa, bu hayotiy g‘oya hikoya yakunida o‘zining obrazli talqinini topadi: “Jajjigina nevara tokda osilib turgan uzumlarga qaraydi. O‘z qo‘llari bilan olib emochi bo‘ladi...” Ammo hali qo‘li etmaydi. Bu oddiy, ammo realistik tasvirda hayot va avlodlar davomiyligi o‘z ifodasini topgandek. Bobo nevaraning peshonasi va tiniq yuziga boqib, uning kelajagiga umid bog‘laydi. Bu tuyg‘ular hikoyada tavsif etilmagan, ammo adibning g‘oyaviy-badiiy niyati orqali ularni tuyish, anglash mumkin va oz so‘z bilan ko‘p fikr ayta olish va iliq hissiyot uyg‘ota bilish iqtidoriga amin bo‘lamiz. Nazarimizda, ushbu hikoyada adibning “Yulduzlar mangu yonadi” nomli ilk qissasining bosh qahramoni Bo‘ri polvon va o‘g‘lining dastlabki chizgilarini payqashi mumkin. Bunday g‘oyaviy-badiiy tasvir va talqinlarning mantiqiy davomiyligi ham ijod jarayonining an‘anaviy bir tamoyili ekanligini ta‘kidlash lozim.

---

<sup>1</sup> Каримов Х. Адабий портретлар. – Тошкент: Янги нашр, 2017. – Б. 420.

Togʻay Murodning ilk ijodiy mashqlaridan yana biri - “Kuzning bir kunida” nomli hikoyasida ham adibning “Otamdan qolgan dalalar” romaniga taalluqli dastlabki lavha va hayotiy detallarni uchratish mumkin. Hikoyada tasvirlangan paxta terimi mavsumidagi yomgʻirli kunlardagi tund ob-havolar bilan bogʻliq ezgin kayfiyat va qahramonlar ruhiyatidagi oʻy-kechinmalar adib xayoli va tafakkurini talabalik paytlaridanoq band etib kelganini tasavvur qilish mumkin. Hikoyaning **“jafokash dehqon kuzining oltin bir kuni tugayotgan edi...”** jumlasida ham yosh yozuvchining teran oʻy-mushohadasi va xalqimiz, xususan, paxtakorlarimizning mahzun hayoti va qismati haqidagi armonli hamdardlik tuygʻulari ham aks etib turganligini sezgandek boʻlamiz. Bu ham ijodiy evolyusiyaga xos muhim xususiyatdir. Kichik epik janr-hikoyadan qissa va romanigacha muallif ongi va badiiy tafakkurini ifodlash shakllari ham oʻzgarishi kuzatiladi. Yozuvchi ongi badiiy tafakkur shakliga aylangunga qadar bosib oʻtilgan ijodiy bosqich muallif uslubi va mahoratida koʻproq namoyon boʻladi. Bu hikoya 1969 yil chiqqan boʻlsa-da, unda muallif ong-tafakkuri modifikatsiyasi keyinchalik adib romanlarida keng rakursda qayta mushohada qilinadi va chuqurlashadi. Bu bogʻlanish ilk hikoyadan romanga qadar boyitilib, voqelikni ifodalashda ongosti qatlamlarida qayta talqin qilinib, janriy-kompozitsion yaxlitlik sintezlashuvi jarayonlari tasavvur etiladi.

Hikoyada xalq dardi - tashvishidan yiroq boʻlgan va tengqurlaridan oʻzini juda baland deb biluvchi shaharlik “oqbilak” talabaning tipik bir obrazi oʻziga xos jonli tarzda yaratilgan. Shaharlik munofiq talaba Akromjonning xudbinligi uning individuallashtirilgan nutqi va xatti-harakati bilan oshkor boʻladi: *“Biza endi, domlajon, paxta terib koʻrmaganmiz-de...”* *“Ja-a vahima qilib yozibsiz, kasal desayiz ham boʻlivurardi...mashina yuboring. Samarqand avtostansiyasi bor-ku, oʻshatga kelib tursin...”*<sup>1</sup> Shu ikki ogʻiz soʻzlaridan uning shevasi ham, olifta, erka-arzandaligi ham sezilib turadi. Onasi oʻlgan odam “chumoliga tikilib oʻtirishi” holatlari adibning “Momo-er qoʻshigʻi” qissasidagi Pahlavon Daholarga oʻxshab ketishi ham ijodkorning

<sup>1</sup> Тоғай Мурод. Танланган асарлар. 3-жилд. Ҳикоялар, мақолалар, кундалик дафтардан. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 52

o‘z asarlarida hayot manzaralarini mumkin qadar keng va chuqur yoritishga intilishi o‘ziga xos bir ijodiy mezon ekanligidan guvohlik beradi.

Hikoyada ancha yorqin tasvirlangan, hayotda katta tajribaga ega va keng fikrli o‘qituvchi tabiatni onaga mengzashida ham Tog‘ay Murodning inson va tabiatning yaxlit bir olam ekanligi xususidagi chuqur falsafiy mushohadalarining badiiy bir talqini ifodalangan deb qaralishi to‘g‘ri bo‘ladi. Adib ijodida asosiy o‘rin tutuvchi bu umuminsoniy g‘oya uning deyarli barcha asarlarida, jumladan, “Ku-ku-ku” hikoyasida ham mahorat bilan aks ettirilganini yosh yozuvchining ijodiy yutuqlaridan biri deyish mumkin.

“Ku-ku-ku” hikoyasi qahramoni istirohat bog‘i direktori muovini, tabiat va go‘zallik shaydosi, solih inson. U qushlarni sevganidan, ularga in yasatib, istirohat bog‘idagi daraxtlarga qoqdiradi. Musichalar “ku-ku-ku” deganda, o‘zida yo‘q quvonadi. Lekin ko‘p o‘tmay direktor kurortdan kelgach, unga dakki beradi: “Bu madaniyat bog‘i! Bu erda parrandalar emas, xalq hordiq chiqarishi kerak! ...Siz rahbarmi yo kaptarbozmi? Marhamat, yozing ariza. U ariza yozayotganda yuragi yomonlashadi, qandaydir ichki nido bilan musichalarini ko‘rgisi keladi. Direktorga: “Musichalarimni ko‘rmadingiz mi?” - dedi. - Ana hovlida. O‘zlaridan ko‘rsin, haydadim, ketmadi - dedi direktor” U hovliga chiqqanda, musichalar chiqindilar qutisida boshlari orqasiga qayrilib yotardi.” Bu manzaradan kitobxonning ham yuragi muzlab ketadi.

Hikoyada musichalar ezgulik va tabiatning bir mo‘‘jizasiday tasvirlanadi. Johil direktorning xatti-harakati yovuzlik timsoli bo‘lib, u hukmron tuzum - totalitar siyosatning ham ramziy bir ifodasiday o‘quvchida kuchli nafrat uyg‘otadi. Direktor o‘rinbosari va musichalar esa zo‘ravonlik siyosati va mafkurasidan yurak oldirib qo‘ygan, haq-huquqdan mahrum erksiz halqning ramziy timsoliga o‘xshaydi. Mashhur shoirimiz Erkin Vohidov aytganidek, shunday zo‘ravonlik va yovuzlik oqibatida uning “yuragida qo‘rquv” hukmron. Hikoya voqealari zamiridagi muhim fikr-g‘oyalari bilan ham kitob xonlarda chuqur va mahzun bir taassurot qoldiradi. (H.Karimov)



“Er-xotin” hikoyasida ham hayot haqiqati o‘z badiiy in’kosini topgan. Hikoya adabiyotda ancha keng tarqalib, quyma bir shablonga aylanib ketgan “sayyor” syujetli asarlarga nisbatan kinoyadan boshlanadi: “Yo‘q, ular anhor bo‘yida uchrashmadi. Uchrashuvda o‘ziniki qilib aytish uchun kitoblardan she’rlar ko‘chirib olmadi. O, men seni sevaman, sensiz yashay olmayman qabilidagi mavsumiy so‘zlarni so‘zlashmadi. Yo‘q, yigit bezorilardan qutqar ib qolmadi...”<sup>1</sup> Hikoyaning noan’anaviy muqaddimasi ham Tog‘ay Murodning ijodda o‘z yo‘li va uslubini izlayotgan bir ijodkor sifatida ulg‘ayib, shakllanib kelayotganidan nishona berib turadi.

“Shoir O‘rolboy yoshi o‘ttizga kirganda hayotning asosi haqida o‘ylab qoldi, ya’ni oila haqida. O‘ziga munosibini topdi. U oddiy tikuvchi Barchinoy edi... **Hech bir millat o‘z milliy kiyimidan voz kechmagan holda bizning millat kechdi. Bu hol o‘z qadrini bilgan odamning qalbini o‘rtaydi**, albatta. O‘rolboy shunaqa odam.(Ta’kid bizniki.-M.X.) Er-xotin o‘rtasida munoqasha bo‘ladi: - Siz doim shunaqasiz. Topgan gapingiz - o‘zbek atlasiga butun jahon xaridor. Samarqanddagi tarixiy binolar jahonda yo‘q. Unaqa-bunaqa...” Voqea keskinlashadi. O‘rolboy ayol zotiga birinchi marta qo‘l ko‘tardi. Barchinoy bo‘lsa vaziyatni o‘ylab ko‘rmadi. Hamma aybni erining zimmasiga qo‘ydi. Chap yonog‘i ko‘kargan edi. U alamidan labini burib yig‘ladi.

Kutilmaganda O‘rolboyning qishloqdagi tog‘asi bilan ikki notanish erkak kelib qolishadi. Shunda o‘zbekning qon-qoniga singib ketgan udumi ustun kelib, Barchinoy mehmonlarni jilmayib kutib oldi. Hech narsa bo‘lmaganday elib-yugurib dasturxon yozdi, darrov ovqatga urindi. Shu payt tog‘aning ko‘kargan yonoqqa ko‘zi tushdi. “E, yuzga nima bo‘ldi, kelin? – dedi. O‘rolboyning yuragi shuv etdi. Yo‘q, Barchinoy ... erini noqulay vaziyatdan qutqardi. ”Yosh ayolining bunday nozikfahmliligidan O‘rolboynig qalbi tog‘day ko‘tarildi, go‘yo qalbidagi mehr bulog‘ining ko‘zi ochilganday bo‘ldi... Demak, haqiqiy insoniy tuyg‘uni hissiyotgina emas, aql bilan yo‘g‘rilgan mehr yuzaga keltiradi. Hikoya shu hayotiy haqiqatni ifodalashi bilan ham qimmatlidir.

<sup>1</sup> Тоғай Мурод. Танланган асарлар. 3-жилд. Ҳикоялар, мақолалар, кундалик дафтардан. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 23 .

Darhaqiqat, “Er-xotin” hikoyasi ham yaxshi yozilgan, hayotiy bir asar. Qahramonlari ham o‘zbekona milliy xarakterlari bilan o‘quvchida qiziqish uyg‘otadi. Ammo bir-ikki o‘rni, nazarimizda, ishonarsizday: yosh ayol yuzidagi ko‘karig‘i bilan begona erkaklar yonida o‘tirishi. Yana “ichkiliklardan quyung”, deb eriga buyurishi, unga tuzlangan bodring uzatishlari... Bizningcha, qahramonlar holatini tasvirlashda hayotiy haqiqatdan biroz chekingan ko‘rinadi. Bulardan qat‘iy nazar, dastlabki hikoyalarida ham muallifning milliy tafakkuri, adabiy-estetik qarashlari, adabiyot va san‘at haqidagi muhim fikrlari ifodalangan hamda ular ijodkor shaxs sifatida shakllanishida muayyan darajada zamin bo‘lganini qayd etish o‘rinli bo‘ladi.

Tog‘ay Murod ilk hikoyalaridagi tabiat bilan bog‘liq lavhalar ham bo‘lajak ijodkorning san‘atga qiziqish-hayrat tuyg‘ulari uning tabiatida, qonida bo‘lganligiga dalildir. Adibning “Ku-ku-ku” hikoyasidagi quyidagi parchani ko‘zdan kechiraylik: “Uyida jurnallardagi rasmlarni, Rembrandt, Rafael, Bottichellining nodir asarlarini tomosha qilib o‘tiradi. Ayniqsa, Shishkinning “Bug‘doyzor”iga uzoq tikilib qoladi. U ikki toifa odamlarga achinadi. Biri - Shishkinning rasmlari oldidan beparvo o‘tgan odamga, ikkinchisi qushlar sayrayotganda so‘zlashgan odamga. Shu payt daraxt shohlar ida qo‘nib turgan qushlarning turli nag‘madagi sayrashlari eshitiladi. U "Munojot"ni tinglayotganday boshini ma'yus egib, eshitadi. Yuzlariga tabassum yuguradi. O‘rnidan turib, qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yadi-da, qushlarga ta’zim qiladi: - Ofarin, birodar, ofarin. Qulluq!...” Ushbu realistik tasvir zamirida tug‘ma iste’dodi va ijodkor shaxsi shakllanib kelayotgan yosh adibning adabiyot va san‘atga munosabati va intel lektual salohiyati o‘ziga xos va umuminsoniy mazmunga ega ekanligi yaqqol seziladi. Bizningcha, Tog‘ay Murod va boshqa adiblarimizning asarlarida G‘arb va Evropa adabiyoti va san‘atiga taalluqli reminissensiyalari tilga olinsa-da, ularni rus va evropalik ijodkorlar ta’siri bilangina izohlash etarli bo‘lmaydi. Chunki mumtoz adabiyotimiz va ayniqsa, Kamoliddin Behzod kabi buyuk musavvirlarimiz yaratgan qadimiy miniatyura san‘ati Sharq va O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatida ham rivojlangani tarixdan ham ma’lum. Adabiyot va ijodni o‘zining qismati deb bilgan barcha iste’dodli adiblar singari Tog‘ay Murod ham o‘z ijodini boshlar ekan, eng

avvalo, adabiyotning vazifasini, san'atkorning jamiyat, xalq oldidagi yuksak burchmas'uliyatini to'g'ri tushunib etadi, hamisha ularga sodiq qoladi. Masalan, u bolalik davridan boshlab yuritgan Kundaliklarida, "Men" deb atalgan hasbi holida, shuningdek, ayrim hikoya va qissalarida ham o'zining adabiyot, badiiy ijod hamda ijodkor shaxsi haqidagi muhim hayotiy kuzatishlarini bayon etadi. Adabiyotni va ijodni g'oyat mas'uliyatli, muqaddas soha deb bilgan adibning fikrlari teranligi bilan jahon adabiyotshunosligiga munosib hissa bo'lib qo'shiladi.

---

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14041954>

## O‘ZBEK TILI KORPUSIDA SO‘Z BIRIKMALARINI SINTAKTIK TEGLASH

**Xidirov Otabek Jo‘raboyevich**

JDPU, f.f.f.d(PhD).dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek tili korpusida so‘z birikmalarining lisoniy-sintaktik qoliplariga asoslangan sintaktik teglash tizimi va modellari tahlil ostiga olingan.

**Kalit so‘zlar:** Korpus, sintaktik teglash, model, sintaktik birliklar, so‘z birikmasi, lison-nutq.

**Аннотация:** В статье проанализировано системы тегов и моделей основанные лингвистическо синтаксическими шаблонами словосочитаний в корпусе узбекского языка.

**Ключевые слова:** корпус, синтаксическая, модель прикосновения, синтаксические единицы, лексика.

**Annatation:** In this Uzbek corpus, article analyzes the tagging system and models based on the linguistic syntactic patterns of language syntactic compounds.

**Key words:** corpus, syntactic touch, model, syntactic units, vocabulary, language-speech.

Mustaqil so‘zlarning nutq jarayonidagi erkin bog‘lanishi *sintaktik aloqa* deyiladi: *Suvlar tiniq, toza havo*. Sintaktik birlik bir necha a‘zoli bo‘ladi. Faqat gap bir a‘zoli bo‘lishi mumkin. Nutqda so‘zlarning bir-biri bilan bog‘lanishi har bir tilning lisoniy-sintaktik qolipi, leksemaning birikish imkoniyati asosida sodir bo‘ladi. So‘zning sintaktik munosabatga kirishuvi natijasida hosil bo‘lgan sintaktik qurilma *so‘z qo‘shilmasi* deyiladi. Bu so‘zning bir-biriga ergashishi (*a‘lochi o‘quvchi*) yoki tenglashishi (*olma va anor*) shakllarida bo‘lishi mumkin. Demak, so‘zlar orasidagi

aloqa ikki xil: tenglashish va tobelanish. Ular esa uch xil hosilani beradi: soʻz birikmasi, soʻz tizmasi va gap. Tenglashish aloqasi asosida soʻz tizmasi hosil boʻlsa, tobelanish aloqasi asosida soʻz birikmasi va gap shakllanadi<sup>1</sup>.

Korpus sintaktik razmetka tizimida kollokativ qidiruv juda muhim: qidiruv natijasining sifati qidiruvning mukammalligi bilan toʻgʻri proporsional. Kollokativ qidiruvni tashkil etish uchun korpus birliklari soʻz birikmasi va soʻz qoʻshilmasini ajratuvchi tegga ega boʻlishi talab qilinadi.

Soʻz birikmasi birikuvchi soʻzlarning hokim-tobelik munosabati asosida hosil boʻladi. Bunda izohlanuvchi aʼzo kengayuvchi, izohlovchi aʼzo *kengaytiruvchi* aʼzo deb yuritiladi: *kitobni oʻqimoq* (kitobni – izohlovchi, kengaytiruvchi, oʻqimoq – izohlanuvchi, kengayuvchi).

Tobelanish aloqasida hokim aʼzo hokimlik mavqei va vositasiga, tobe aʼzo tobelik mavqei va uni taʼminlovchi vositaga ega boʻladi. *kitobni oʻqimoq* birikmasida *kitobni* aʼzosi oldin kelib, tushum kelishigi koʻrsatkichi bilan shakllangan boʻlsa, *oʻqimoq* aʼzosi hokimlik mavqei va shakliga ega. Aʼzolarining hokim-tobeligini bildiradigan shakliy koʻrsatkich har doim ham boʻlavermaydi. Morfologik koʻrsatkich boʻlmaganda tobelik va hokimlik belgisi birikuvchi soʻzlarning lugʻaviy-grammatik tabiatidan, sintaktik oʻrnidan hamda tartib va ohangdan bilinib turadi. Masalan: tiniq suv (tobe+hokim), suv tiniq (tobe+hokim)<sup>2</sup>.

Morfologik koʻrsatkichsiz tobe-hokimlik munosabatini aniqlash uchun lisoniy-sintaktik qolip hamda morfologik teglar tizimidan foydalanish oʻrinli. Masalan, *qiziqarli kitob* birikmasida morfologik koʻrsatkich yoʻq. Kontekstda bu birliklarning soʻz birikma ekanligini lisoniy-sintaktik qolip bilan aniqlash mumkin. Lisoniy-sintaktik qolipda qaysi soʻz turkumi oʻzaro birikishi koʻrsatib berilgan. Korpus birliklari morfologik teglangan boʻlsa, teg va lisoniy-sintaktik qolip asosida

<sup>1</sup>Замонавий ўзбек тили: Синтаксис./ Муаллифлар жамоаси. Масъул мухаррирлар Х.Ф.Неъматов, Р.Сайфуллаева. ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети. – Тошкент.: Мумтоз сўз, 2011. – 312 б. – Б. 26.

<sup>2</sup>Замонавий ўзбек тили: Синтаксис./ Муаллифлар жамоаси. Масъул мухаррирлар Х.Ф.Неъматов, Р.Сайфуллаева. ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети. – Тошкент.: Мумтоз сўз, 2011. – 312 б. – Б. 59-61.

morfologik ko‘rsatkichsiz sintaktik munosabatli birikmalarni ham avtomatik teglash imkoni paydo bo‘ladi. Ushbu holatni quyida batafsil izohlaymiz.

Boshqa lisoniy hodisa kabi so‘z birikmalarining lisoniy-sintaktik qoliplarini tiklash va uning voqelanishi farqlanadi. SB LSQning voqelanishi «lison-nutq» yo‘nalishida bo‘lib, bu yo‘nalish umumiylikdan oraliq ko‘rinish orqali xususiylikka – nutqiy hodisaga qarab boradi. Bu borada S.Nazarova tomonidan ishlab chiqilgan LSQlarga alohida e‘tibor qaratish muhim. Jumladan, S.Nazarova LSQlarning [W<sup>morfologik vosita</sup> \_W<sup>morfologik vosita</sup>] ko‘rinishdagi invariant, [W<sup>qaratqich kelishigi</sup> \_W<sup>egalik qo‘shimchasi</sup>], [Ism<sup>qaratqich kelishigi</sup> \_ Ism<sup>egalik qo‘shimchasi</sup>], [Ot<sup>qaratqich kelishigi</sup> \_ Ot<sup>egalik qo‘shimchasi</sup>], [Ot<sup>atoqli qaratqich kelishigi</sup> \_ Ot<sup>turdosh egalik qo‘shimchasi</sup>] kabi variantlarini ajratadi [Nazarova S, 1997:26]. Albatta, til korpusida so‘z birikmalarni teglash muammosi umumiy (invariant) LSQlar bilan hal etilmaydi, balki so‘z birikmalarni aniqlashda nisbatan aniqroq qoliplar talab etiladi.

S.Nazarova ushbu LSQning quyi bo‘linishlari uning tegishli so‘z turkumi tomonidan to‘ldirilishi asosida quyidagicha tasniflaydi [Nazarova S, 1997:27].

- 1) [ot<sup>qaratqich kelishigi</sup> → ot<sup>egalik qo‘shimchasi</sup> = ot<sup>qaratuvchi</sup> + ot<sup>qaralmish</sup>]: *kitobning varag‘i*;
- 2) [ot<sup>qaratqich kelishigi</sup> → sifat<sup>egalik qo‘shimchasi</sup> = ot<sup>qaratuvchi</sup> + sifat<sup>qaralmish</sup>]: *daraxtning mo‘rti*;
- 3) [sifat<sup>qaratqich kelishigi</sup> → ot<sup>egalik qo‘shimchasi</sup> = sifat<sup>qaratuvchi</sup> + ot<sup>qaralmish</sup>]: *gulning/qizilining hidi*;
- 4) [sifat<sup>qaratqich kelishigi</sup> → sifat<sup>egalik qo‘shimchasi</sup> = sifat<sup>qaratuvchi</sup> + sifat<sup>qaralmish</sup>]: *olmaning/kattasining chuchugi*;
- 5) [ot<sup>turdosh qaratqich kelishigi</sup> → sifat<sup>egalik qo‘shimchasi</sup> = ot<sup>qaratuvchi</sup> + son<sup>qaralmish</sup>]: *gulning bittasi*;
- 6) [son<sup>qaratqich kelishigi</sup> → son<sup>egalik qo‘shimchasi</sup> = son<sup>qaratuvchi</sup> + son<sup>qaralmish</sup>]: *o‘nning yarmi*;
- 7) [ot<sup>qaratqich kelishigi</sup> → harakat nomi<sup>egalik qo‘shimchasi</sup> = ot<sup>qaratuvchi</sup> + fe‘l<sup>qaralmish</sup>]: *Otabekning qaytishi*;
- 8) [harakat nomi<sup>qaratqich kelishigi</sup> → ot<sup>egalik qo‘shimchasi</sup> = fe‘l<sup>qaratuvchi</sup> + ot<sup>qaralmish</sup>]: *uyalishning o‘rni*;

9) [harakat nomi qaratqich kelishigi → harakat nomi egalik qo'shimchasi = fe'l qaratuvchi + fe'l qaratuvchi]: *olmoqning bermog'i*;

10) [ot qaratqich kelishigi → sifatdosh egalik qo'shimchasi = ot qaratuvchi + sifatdosh qaralmish]: *yurakning to'xtagani*;

11) [sifatdosh qaratqich kelishigi → ot egalik qo'shimchasi = sifatdosh qaratuvchi + ot qaralmish]: qo'rqanning ko'zi,

12) [ot qaratqich kelishigi → ravish egalik qo'shimchasi = ot qaratuvchi + ravish qaralmish]: *mehnatning kecha-kunduzi*;

13) [olmosh qaratqich kelishigi → ot egalik qo'shimchasi = olmosh qaratuvchi + ot qaralmish]: *mening vatanim*;

14) [ravish qaratqich kelishigi → ot egalik qo'shimchasi = ravish qaratuvchi + ot qaralmish]: *hozirning huzuri*.

Ushbu qoliplar S.Nazarova tomonidan tadqiq etilgan: yuzlab nutqiy hosilalarda sinab ko'rilgan, umumlashtirilgan. Shuning uchun biz ism+ism qolipli so'z birikmalarning modelini shu qoliplar asosida tuzishimiz mumkin. Buning uchun, avvalo, qolip tarkibidagi ismlarning turini anglatuvchi qismlarni ma'lum belgi bilan, tobelanishni ko'rsatib turuvchi morfologik vositalarning maxsus belgilarini tanlab olamiz. Bunda ot = N, sifat = Adj, son = Num, turdosh ot = N<sup>sub</sup>, olmosh = Pr, ravish = Prv, harakat nomi = Ger teglari bilan; qaratqich kelishigi = Case (yoki Ss), egalik qo'shimchasi = Possessive (yoki Pos) teglari bilan belgilanadi. Shundan kelib chiqib, til korpusi uchun so'z birikmalarni sintaktik tglashning ism+ism qolipi uchun quyidagi modellarni taklif qilish mumkin:

1) [N<sup>Cs</sup> → N<sup>Pos</sup>]: *kitobning varag'i*;

2) [N<sup>Cs</sup> → Adj<sup>Pos</sup>]: *daraxtning mo'rti*;

3) [Adj<sup>Cs</sup> → N<sup>Pos</sup>]: *gulning/qizilining hidi*;

4) [Adj<sup>Cs</sup> → Adj<sup>Pos</sup>]: *olmaning/kattasining chuchugi*;

5) [N turdosh<sup>Cs</sup> → Adj<sup>Pos</sup>]: *gulning bittasi*;

6) [Num<sup>Cs</sup> → Num<sup>Pos</sup>]: *o'ning yarmi*;

7) [N<sup>Cs</sup> → Ger<sup>Pos</sup>]: *Nabekning qaytishi*;

- 8) [Ger<sup>Cs</sup> → N<sup>Pos=</sup>]: *uyalishning o'rne*;
- 9) [Ger<sup>Cs</sup> → Ger<sup>Pos=</sup>]: *olmoqning bermog'i*;
- 10) [N<sup>Cs</sup> → Adjdosh<sup>Pos=</sup>]: *yurakning to'xtagani*;
- 11) [Adjdosh<sup>Cs</sup> → N<sup>Pos=</sup>]: *qo'rqqanning ko'zi*;
- 12) [N<sup>Cs</sup> → Prv<sup>Pos=</sup>]: *mehnatning kecha-kunduzi*;
- 13) [Pr<sup>Cs</sup> → N<sup>Pos=</sup>]: *mening vatanim*;
- 14) [Prv<sup>Cs</sup> → N<sup>Pos=</sup>]: *hozirning huzuri*.

Shuningdek, zamonaviy sintaksisda so'z birikmasining [ism<sup>kelishik</sup> qo'shimchasi + fe'l] qolipi ham ajratiladi [H.G'.Ne'matov, R.Sayfullaeva, 2011:67]..

So'z birikmasining bu LSQi birinchi uzvi morfologik shakllangan va shuning uchun SHMJ birikuv omiliga ega va ikkinchi qismda grammatik ko'rsatkich bog'lanish uchun nisbatan ahamiyatsiz bo'lganligi bois, birikuv omillarining MSHJ kombinatsiyasi amal qiladi. Qolipning birinchi uzvini ism turkumiga oid so'zlar to'ldirib, ular hokim uzvga tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari shakllari bilan bog'lanadi. Birinchi uzvi asosida LSQ quyidagi ko'rinishlarga ega bo'ladi

- 1) [ism<sup>tushum kelishigi</sup> → fe'l];
- 2) [ism<sup>jo'nalish kelishigi</sup> → fe'l];
- 3) [ism<sup>o'rin-payt kelishigi</sup> → fe'l];
- 4) [ism<sup>chiqish kelishigi</sup> → fe'l].

LSQning har bir ko'rinishi ism uzvining bo'linishi asosida yana tarmoqlanadi. Masalan, [ism<sup>tushum kelishigi</sup> → fe'l] qolipi quyidagi bo'linishlarni beradi [H.G'.Ne'matov, R.Sayfullaeva, 2011:67].

- 1) [ot<sup>tushum kelishigi</sup> → fe'l];
- 2) [sifat<sup>tushum kelishigi</sup> → fe'l];
- 3) [son<sup>tushum kelishigi</sup> → fe'l];
- 4) [olmosh<sup>tushum kelishigi</sup> → fe'l];
- 5) [harakat nomi<sup>tushum kelishigi</sup> → fe'l].



Ushbu qoliplarga *kitobni/yaxshini/o'nni ayir, uni gapirish/o'qimoq/so'ramoq/ boshlamoq/ni bas qil* kabilarni misol keltirish mumkin.

Yuqoridagi LSQlar asosida sintaktik teglashning ism+fe'l qolipi uchun  $[Sub^{Cs3} \rightarrow V]$ ;  $[Sub^{Cs4} \rightarrow V]$ ;  $[Sub^{Cs5} \rightarrow V]$ ;  $[Sub^{Cs6} \rightarrow V]$  modellarini taklif etsak, ismning ko'rinishlariga ko'ra turlari bo'yicha  $[N^{Cs3} \rightarrow V]$ ;  $[Adj^{Cs3} \rightarrow V]$ ;  $[Num^{Cs3} \rightarrow V]$ ;  $[Pr^{Cs3} \rightarrow V]$ ;  $[Ger^{Cs3} \rightarrow V]$  kabi modellar so'z birikmalarni farqlashga yordam beradi. Bunda  $Cs3$  tushum,  $Cs4$  jo'nalish,  $Cs5$  o'rin-payt,  $Cs6$  chiqish kelishigini; Sub ismni, V fe'lni ifodalovchi teg hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytish joizki, morfologik ko'rsatkichsiz va morfologik ko'rsatkichli so'z birikmasini aniqlashda lisoniy-sintaktik qoliplar asosida tuzilgan modellardan foydalanish sintaktik teglar tizimining mukammal bo'lishiga olib keladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Nazarova S. Birikmalarda so'zlarning erkin bog'lanish omillari: filol.fan. nomz.... diss. avtoref. – Toshkent: 1997. – 26 b.
2. Zamonaviy o'zbek tili: Sintaksis./ Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrirlar H.G'.Ne'matov, R.Sayfullaeva. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. – Toshkent.: Mumtoz so'z, 2011. – 312 b. – 67-71.
3. <https://uz.denemetr.com/docs/769/index-313952-1.html?page=30>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14041967>

## TIL KORPUSIDA IFODALANGAN LINGVISTIK AXBOROT DASTURLARIDAN FOYDALANISH

**Xidirov Otabek**

f.f.f.d (PhD), dotsent. Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada korpuslar razmetkasida ifodalangan lingvistik axborotlardan foydalanish hamda matnga avtomatik ishlov berish, sintaktik razmetkalashning dasturiy ta'minoti tahlil ostiga olingan.*

**Kalit so'zlar:** *Morfologik axborot, sintaktik axborot, korpus, dasturiy ta'minot, matn razmetkasi, sintaktik tahlil dasturlari, korpus razmetkasi.*

**Annotatsiya:** *V state analiziruetsya ispolzovanie lingvisticheskoy informatsii, v'rajennyoy v korpuse i programmnom obespechenii dlya avtomaticheskoy obrabotki teksta, sintaksicheskogo razresheniya.*

**Klyuchev'e slova:** *Morfologicheskaya informatsiya, sintaksicheskaya informatsiya, korpus, programmnoe obespechenie, razmetka teksta, programm' sintaksicheskogo analiza, razmetka tela.*

**Annatation:** *This article analyzes the use of linguistic information expressed in the case of case, as well as the software for automatic processing of text syntactic notation.*

**Key words:** *Morphological information, syntactic information, corpus, software, text markup, syntactic analysis programs, corpus marking.*

Gapning sintaktik belgisi shajara daraxti bilan ifodalanadi. Bu erda har bir o‘q “hokim”dan “tobe”ga yo‘naltiriladi hamda sintaktik munosabatlardan birining nomi bilan belgilanadi<sup>1</sup>. An’anaviy holda tarkibda sintaktik guruh hamda tarkibiy qismlar mavjud emas; aslida, shajara daraxtining har qanday “tupi” guruh deb hisoblanishi mumkin, uning tepasi “buta”ning tashqi aloqalarida uning vakili sifatida ishlaydi. Odatda, daraxt tuzilishidagi tugunlar soni jumladagi so‘zlar soniga teng. Bir tomondan, istisno holatini keltirib chiqaruvchi hodisalar ham mavjud: ayrim so‘z shakllari zanjiri leksik birlikni bildirganda, yuqoridagi qoidaga amal qilinmaydi, istisno holati yuzaga keladi. Bunday paytda, so‘z soniga qaraganda strukturada a‘zo soni kamayadi. Boshqa tomondan, biror bir so‘z strukturaga “yopishtirilishi lozim” bo‘lsa yoki real matnda mavjud bo‘lmagan so‘z strukturaga kiritilishi kerak bo‘lsa ham, matndagi so‘z shakllari zanjir bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. (Otam vrach bo‘lib ishlardi, onam esa o‘qituvchi //Otam vrach bo‘lib ishlardi, onam esa o‘qituvchi BO‘LIB ISHLARDI). Ta’kidlash kerakki, teglash jarayonida har qanday qayta ishlangan matnning leksik, sintaktik omonimiyasi to‘liq echimini topadi. Agar buni avtomatik amalga oshirish imkoni bo‘lmasa (tizim tomonidan tuzilgan, izohlovchi yoki muharrirning fikriga ko‘ra, jumlada uchraydigan tuzilma mos kelmasa), albatta qo‘l bilan tuzatiladi.

Teglovchi mutaxassis ham omonimiyani hal qila olmaydigan alohida holatlarda (masalan, *qasddan qichqiriq bo‘lsa, ruh kabi ajoyib impuls mavjud*), jumla bir nechta tuzatish bilan ta’minlanishi mumkin. Razmetkalangan matnlar korpusi biror-bir tilning alohida lug‘ati bilan uzviy bog‘liq emasligi sababli muallif so‘zning aniq leksik ma’nosini ma’lum tarzda, noaniqlik va leksik omonimiya bilan belgilash g‘oyasidan voz kechadi. Masalan, *mexanik1* (shaxs oti) va *mexanik2* (fizik holat) so‘zi, *qalb1* (yurak) hamda *qalb2* (noto‘g‘ri, egri) hech qanday indeks bilan ta’minlanmagan. Istisnolar ba’zi “ishchi” so‘zlar(xususan, old qo‘shimchalar)ga oid bo‘lib, ularning leksik ma’nosi korpus hujjatlarida tasvirlangan.

---

<sup>1</sup>Богуславский И.М., Григорьев Н.В., Григорьева С.А., Иомдин Л.Л., Крейдлин Л.Г., Фрид Н.Е. Разработка синтаксически размеченного корпуса русского языка // [http://cl.iitp.ru/bibitems/corpus\\_SPB.pdf](http://cl.iitp.ru/bibitems/corpus_SPB.pdf)

Demak, matnga avtomatik ishlov berish annotatsiyalangan korpusdan foydalanganda aniqroq, xatosiz amalga oshirilishi oydinlashadi. Korpusning sintaktik teg(izoh)langan qismini sinab ko‘rishni boshlagan birinchi turdagi dastur – ETAP-3 tizimida rus tilidan ingliz tiliga tarjima qilinganida sintaktik noaniqlikni avtomatik hal qilish aniq natija bergan. Bundan kelib chiqadiki, matnni avtomatik qayta ishlash uchun lingvistik ta‘minot va dasturiy tizim ishlab chiqilishi talab etiladi.

Sintaktik tahlil algoritmi ishlab chiqilganda qo‘shimcha filtr yaratish ham talab etilgan: 2-4 a‘zodan tashkil topgan ushbu vosita tahlil qilinayotgan gapni potensial tarmoqlar vositasida tahlildan o‘tkazadi. Bunday tajriba natijasini korpusning keyingi qismini qurishda ham qo‘llash mumkin, chunki yangi, avtomatik ravishda qurilgan gaplarni tahlil qilish yanada osonlashadi.

O.I.Babina, N.Yu.Dyuminlarning ta‘kidlashicha, har bir korpus razmetkasi asosida til nazariyasi yotadi, korpus asosidagi har qanday xulosa shu konsepsiyaga asoslangan holda chiqariladi<sup>1</sup>. Har bir tadqiqotchi tilni modellashtirishda ob‘ektiv/sub‘ektiv sabablarga ko‘ra ma‘lum nuqtai nazarni qo‘llab-quvvatlashi mumkin: masalan, til strukturasi kelib chiqib, tilni formallashtirish nazariyasi ma‘lum bir tilga nisbatan qo‘llanadi, boshqa tilga to‘g‘ri kelmasligi mumkin; til modeli, ko‘pincha, hatto bir til doirasida ham, undagi xilma-xillik va ko‘pma‘nolilikni aks ettirmaydi. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, uncha katta bo‘lmagan tadqiqiy korpuslarni lingvistik annotatsiyalash (razmetkalash) chuqur sintaktik va semantik razmetkani qamrab olishi, shuningdek, faqatgina morfologik izoh (razmetka komponenti) bilan cheklanib qolishi ham mumkin. Katta korpuslar razmetkasida ifodalangan mufassal lingvistik axborot nihoyatda katta mehnatni talab qiladi. Tadqiqot maqsadi mehnat sarfini kamaytirishga qaratilganda, faqat zaruriy izohlar majmuini o‘rganish maqsadga muvofiq. Demak, bu nuqtai nazardan, korpus razmetkasini chuqurlashtirish o‘zini oqlamaydi, razmetkani soddalashtirish yo‘lidan borish hamda qidiruv natijasini aniqlashtirishga e‘tibor qaratish kerak

---

<sup>1</sup>Бабина О.И., Дюмин Н.Ю. Автоматизация лингвистической разметки корпуса текстов // <http://helling100.narod.ru/pubs/AutomationBabinaDyumin.pdf>

bo'ladi. Minimallashtirish konsepsiyasiga asoslanadigan bo'lsak, razmetka tizimiga faqat zaruriy axborotni kiritish maqsadga muvofiq. Boshqa tomondan, korpusda qo'llanuvchi vositaning boshqa tadqiqiy korpusda qo'llash mumkin bo'lgan avtomatik razmetka metodologiyasi sifatida foydalanish samarali natija beradi. Shu konsepsiyadan kelib chiqqan holda, O.I.Babina, N.Yu.Dyuminlar lingvistik razmetka vositalarini tuzish prinsiplari sifatida quyidagilarni sanab o'tishadi<sup>1</sup>:

1. Dasturiy ta'minot vositasi turli xil tizimlar o'rtasidagi muvofqlik muammosining oldini olishga yordam beradigan Unicode belgilar kodlash tizimini qo'llab-quvvatlashi kerak, shu bilan kirill yoki lotin alifbosi bo'lmagan alifbolar diakritikasi yoki alifbodan foydalanadigan tillarni tasvirlash imkoniyatini berishi kerak.

2. Matnlar to'plami hamda tegishli lingvistik ma'lumot yagona ma'lumotlar bazasida saqlanishi kerak, bunda matn korpusi bilan ishlash uchun turli xil funksiyalarni amalga oshiradigan tizimning dasturiy komponentidan standartlashtirilgan kirish ta'minlanadi.

3. Korpusga ishlov berishga mo'ljallangan ma'lum vositalar undan alohida bo'lishi talab qilinadi. Shuning barobarida, tizimning umumiy universalligini ta'minlashishga erishish lozim. Ma'lumotning lingvistik bazadan boshqa tizimlarda ham takroriy qo'llanishiga erishish mumkin.

4. Tizimning har bir komponenti alohida lingvistik vazifa bajaradi, tizimning modul tashkilotini ta'minlaydi.

5. Til materiali(matn)ning reprezentatsiyasi asosiy omil; barcha hosilaviy lingvistik ma'lumotlar (xususan, leksikon) matn korpusidagi pozitsiyalarga bog'langan. Matn reprezentativligi prinsipi korpusdagi turli so'zshakl, so'z birikmasi leksik va grammatik kontekstiga erkin kirishga sharoit yaratadi.

6. Leksik birlikni matnga biriktirish esa omonim so'zshakl va so'z birikmalariga yoziladigan turli morfologik teglar majmuini ajratib olishga yo'l ochadi.

---

<sup>1</sup>Ўша маһба.

Matning avtomatik razmetka majmui dasturiy vositalari quyidagilardan tashkil topadi:

- 1) korpusni boshqarish moduli (CorpusManager);
- 2) avtomatik morfologik razmetka moduli (AutoPOSTagger);
- 3) morfologik razmetkaning avtomatik korrektori (Corrector);
- 4) avtomatik sintaktik razmetka moduli (SynTagger).

Aytish joizki, ushbu tizim matnga har tomonlama ishlov berishga mo'ljallangan. Shu bila birga, turli vazifalarni bajaruvchi vositalar alohida ishlab chiqiladi.

---

*XANKOda an'anaviy sintaksis.* Ma'lumki, an'anaviy yondoshuv asoslari XIX asrda rus tilshunoslari tadqiqotlarida mukammal ishlangan. Rus tili sintaksisining eng to'liq tavsifini 1960 yillarning akademik grammatikasi deb hisoblash mumkin. Zamonaviy tasniflar hozirgi rus tili universitet darsliklarida biroz o'zgarish, farq bilan aks ettirilgan<sup>1</sup>. Ushbu yondashuvning afzalliklari quyidagilar:

- 1) umumiylik va soddalik;
- 2) boshqa sintaktik yondashuvlar asosida (birinchi navbatda, struktur sintaksis), tadqiqot uchun materialni bilvosita izlash imkoniyatining mavjudligi;

An'anaviy sintaksisning kamchiliklari quyidagilarda ko'rinadi:

- 1) sintaktik tuzilmalar tabiati to'g'risidagi zamonaviy g'oyalar bilan nomuvofiqlik;
- 2) sintaktik birliklar tavsifi hamda sintaktik aloqani e'tiborsiz qoldirish;
- 3) tavsifdagi nomuvofiqlik, muqarrar qarama-qarshiliklar (predpozitsion guruhning yo'qligi, turli bo'lak ichidagi bo'lakni aniq ajratib olmaslik);
- 4) avtomatik ishlov berishning murakkabligi.

Biroq yondashuvning ko'rsatilgan afzallik/kamchiliklari ish natijasini oqlamaydi; aksincha, ular potensial foydalanuvchining taxminlarini yanada chigallashtiradi.

XANKO (Xelsinskiy annotirovanny korpus qisqartmasi) yaratuvchilari oddiy foydalanuvchiga tushunarli bo'lgan razmetka darajasini saqlab qolish uchun umumqabul qilingan nazariyalardan foydalanishni ma'qul ko'rishgan. Quyida

---

<sup>1</sup> Валгина Н.С., Современный русский язык. Синтаксис. М.: Высшая школа, 2003.; Кустова Г.И., Мишина К.И., Федосеев В.А. Синтаксис современного русского языка. М., 2005.

XANKOni ishlab chiqilgan tamoyillarni keltirishni ma'qul ko'rdik, zero, o'zbek tili korpusi sintaktik teglar tizimini ishlab chiqishda hamda shunga o'xshash holatlarda ushbu tamoyillarga tayanish mumkin.

1. Muayyan muammoni hal qilishda XANKO yaratuvchilari doim bu yoki boshqa sintaktik ma'lumot va uning axborot qayta ishlashni avtomatlashtirishda qanchalik muhimligiga e'tibor berishgan. Qo'lda bajariladigan ishlarning kutilgan hajmi va natija qiymati ko'pincha bir-biriga zid keladi: masalan, determinantni birlik sifatida ajratib ko'rsatish qo'lda qilinadigan ishlarning sezilarli darajada ko'payishiga olib keladi (determinantni qidirishni avtomatlashtirish mumkin emas), ammo bu ishni ketma-ket bajarish qiyin bo'ladi, chunki konsepsiyaning ko'lami "determinant"ni turli matnda turlicha aniqlaydi.

2. Interfeysning qulayligini hisobga olish ham diqqat-e'tibordagi masala sanaladi. Sintaktik ma'lumotlar turli xil birlikka, jumladan, morfologik ma'lumotni o'z ichiga olgan matn shakliga, ikki marta belgi qo'yilgan hollarda kiritiladi.

Ushbu sintaktik tahlil tizimlari o'zbek tili sintaktik tahlil tizimini yaratish uchun zaruriy tajriba maydoni bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida sanab o'tilgan parser(sintaktik tahlil tizimlari)ni o'rganar ekanmiz, sintaktik tahlil tizimi qanday tarkibiy qismlardan tashkil topishi, sintaktik tahlil teglarini ishlab chiqish uchun qanday lingvistik bilimlar kerak bo'lishini kuzatdik. Xulosa sifatida aytish mumkinki, har bir tildagi sintaktik razmetka tizimini ishlab chiqish uchun o'sha tilning sintaktik qurilishi modellashtirilishi talab etiladi. Modellashtirishdan keyingi bosqich sintaktik teglar tizimini tuzish, so'nggi qadam esa matn til birliklariga sintaktik teglarni biriktirishdir.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14097937>

## MIRZO ULUG‘BEKNING ILMIY SARGUZASHTLARI. YULDUZLAR SARI YO‘L.

**Ibrohimova Muxtasarxon Masumxon qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Xorijiy tillar fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Murodov Utkir Nurillayevich**

### ANNOTATSIYA

*Mirzo Ulug‘bek hayoti va ilmiy-ma‘rifiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan maqola, buyuk astronom va davlat arbobi Ulug‘bekning tarixiy roli va uning ilm-fanga qo‘shgan hissasini tahlil etadi. Maqolada Ulug‘bekning ta‘limi, asos solgan astronomik observatoriyasi, yulduzlar katalozi va ilmiy tadqiqotlaridagi yutuqlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, uning merosining zamonaviy ilm-fanda davom ettirilishi va qadimgi sharq madaniyatidagi o‘rni haqida ma‘lumot beriladi. Ulug‘bekning ilmiy ishlari, o‘z davrida yurtida va chet elda qanday qabul qilinganligi, hamda u bilan bog‘liq tarixiy voqealar va shaxslar ham maqolada o‘z aksini topadi. Bu asar, tarix va ilm-fan ixlosmandlari uchun qiziqarli manba bo‘lib xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:** hayoti, hukumdorligi, observatoriya, ilmiy faoliyat, siyosiy inqiroz, me‘ros.*

## SCIENTIFIC ADVENTURES OF MIRZO ULUGBEK. ROAD TO THE STARS.

**Ibrahimova Mukhtasarkhan Masumkhan qizi**

2nd year student of the Faculty of Foreign Languages of Tashkent State Pedagogical

University named after Nizomi

Scientific supervisor: **Muradov Utkir Nurillayevych**

### ABSTRACT

*An article dedicated to the study of Mirzo Ulugbek’s life and scientific and educational heritage, analyzes the historical role of the great astronomer and statesman Ulugbek and his contribution to science. The article examines Ulugbek’s education, the astronomical observatory he founded, the catalog of stars, and his*



*achievements in scientific research. It also provides information about the continuation of its legacy in modern science and its place in the ancient Eastern culture. Ulugbek's scientific works, how they were received in his country and abroad, as well as historical events and persons related to him, are reflected in the article. This work will serve as an interesting resource for lovers of history and science.*

**Key words:** *life, rule, observatory, scientific activity, political crisis, heritage.*

## НАУЧНЫЕ ПРИКЛЮЧЕНИЯ МИРЗО УЛУГБЕКА ДОРОГА К ЗВЕЗДАМ.

**Ибрагимова Мухтасархан**

Студентка 2 курса факультета иностранных языков Ташкентского  
государственного педагогического университета имени Низоми

Научный руководитель: **Мурадов Уткир Нуриллаевич**

### **АННОТАЦИЯ**

*Статья, посвященная изучению жизни и научно-образовательного наследия Мирзо Улугбека, анализирует историческую роль великого астронома и государственного деятеля Улугбека и его вклад в науку. В статье рассматривается образование Улугбека, основанная им астрономическая обсерватория, каталог звезд, его достижения в научных исследованиях. Также дается информация о продолжении его наследия в современной науке и его месте в древневосточной культуре. В статье отражены научные труды Улугбека, то, как они были приняты в его стране и за рубежом, а также исторические события и лица, связанные с ним. Эта работа послужит интересным ресурсом для любителей истории и науки.*

**Ключевые слова:** *жизнь, правление, обсерватория, научная деятельность, политический кризис, наследие.*

### **Kirish**

Mirzo Ulug'bek 1394-yil 22-martda O'rta Osiyoning Samarqand shahrida tug'ilgan. Uning tug'ilishi Amir Temur (Tamerlan) davrida, uning imperiyasining kengayishi va madaniy rivojlanishi davriga to'g'ri keladi. Otasi: Amir Temur — O'rta asrlar O'rta Osiyo, Eron va Afg'onistonni qamrab olgan buyuk imperiya yaratgan sarkarda va hukmdor. Onasi: Temurning rafiqasi, devoniy, va 1394-yilda Mirzo Ulug'bek tug'ilganda, u juda kuchli va ta'sirli ayol sifatida tanilgan. Ulug'bekning

otasi Temurdan keyin, uning oilasi tarixi turli xonliklar va sulolalar o'rtasidagi siyosiy aloqalar bilan bog'liq. Uning akasi, Shahrukh, Temur davridagi bir necha hududlarning hukmdori bo'lgan. Ulug'bek tug'ilgan paytda, O'rta Osiyo ko'plab madaniy va ilmiy rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirdi. Amir Temur, Samarqandni madaniyat va ilm-fan markazi sifatida rivojlantirishga katta e'tibor bergan. Ulug'bekning otasi Temurdan keyin, uning oilasi tarixi turli xonliklar va sulolalar o'rtasidagi siyosiy aloqalar bilan bog'liq. Uning akasi, Shahrukh, Temur davridagi bir necha hududlarning hukmdori bo'lgan. Ulug'bek tug'ilgan paytda, O'rta Osiyo ko'plab madaniy va ilmiy rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirdi. Amir Temur, Samarqandni madaniyat va ilm-fan markazi sifatida rivojlantirishga katta e'tibor bergan.

Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosi astronomiya va matematikada ulkan yutuqlarni o'z ichiga oladi. Uning asarlari va tadqiqotlari o'z zamonida va keyinchalik ko'plab olimlar tomonidan e'tirof etilgan.

- **Observatoriya:** Ulug'bek 1420-yillarda Samarqandda yirik astronomik observatoriya qurdirgan. Bu observatoriya zamonining eng ilg'or asboblari bilan jihozlangan bo'lib, yulduzlarni kuzatish va ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun mo'ljallangan.

**Yulduzlar Katalozi:** Observatoriyada olib borilgan tadqiqotlar natijasida, Ulug'bek "Zij-i Ulugh Beg" nomli yulduzlar katalogini tuzdi. Ushbu katalogda 1018 ta yulduzning joylashuvi va harakatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bu asar, Yevropada astronomiyaga katta ta'sir ko'rsatdi. Ulug'bek trigonometrik funksiyalarni kashf etishda muhim yutuqlarga erishgan. Uning trigonometriyaga oid ishlari, o'z davrida o'zgacha yondashuvlarni o'z ichiga olgan. Uning astronomik kuzatishlari trigonometrik masalalarni yechish uchun juda muhim bo'lgan. Ulug'bek ilmiy tadqiqotlarda aniq kuzatishlar va tajribalar asosida yondashuvni afzal ko'rgan. U koinotni o'rganishda matematik va fizik asoslarni birlashtirib, ilmiy metodologiyaga asos solgan.

- Uning metodlari o'z zamonida ilg'or bo'lib, zamonaviy ilm-fan rivojida muhim rol o'ynadi.

- Ulug‘bek Samarqandda bir nechta madrasalar tashkil etgan, bu joylarda ilm-fan va ta‘lim rivojlangan. U o‘z shogirdlari va zamondoshlari bilan ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

- U o‘z ilmiy merosini nafaqat astronomiya va matematikada, balki tarix, falsafa va adabiyotda ham davom ettirgan.

Umuman olganda, Mirzo Ulug‘bek ilm-fan va san‘atga bo‘lgan muhabbati, rahbarlik qobiliyati va innovatsion yondashuvi bilan yodda qoladi. Ulug‘bekning ishlari ko‘plab Yevropa olimlari, jumladan, Kopernik va Keplerni ham ilhomlantirgan. U o‘z asarlari orqali Sharq va G‘arb ilm-fanini bog‘lab, madaniy almashuvda muhim o‘rin tutgan. Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosi nafaqat o‘z zamonida, balki kelajakda ham astronomiya va matematikaga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Uning ishlari, ilm-fan rivojida qiyosiy tadqiqotlar va ilg‘or nazariyalarni yaratishda muhim rol o‘ynadi. Ulug‘bek nafaqat buyuk olim, balki zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan buyuk shaxs sifatida tarixda qoladi.

### **O‘rganish mumkin bo‘lgan jihatlar**

1. Ilmga muhabbat: Ulug‘bekning ilm-fanga bo‘lgan ishtiyoqi, har bir kishi uchun o‘rnak bo‘lishi mumkin. O‘z bilimini oshirish va ilmiy tadqiqotlarga qiziqish muhimdir.

2. Innovatsiya va tadqiqot: U yangi g‘oyalar va usullarni qabul qilishga tayyor edi. Bu, zamonaviy insonlar uchun yangi g‘oyalarni rivojlantirish va tadqiqotlarda ilg‘or bo‘lish zarurligini ko‘rsatadi.

3. Madaniyat va san‘atni qo‘llab-quvvatlash: Ulug‘bek san‘at va madaniyatni rivojlantirishda faol ishtirok etgan. Bu, jamiyatda madaniyatning ahamiyatini tushunish va rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

4. Adolat va rahbarlik: U adolatli hukmdor sifatida tanilgan. Bu, insoniyatning bir-biriga nisbatan adolatli va xushmuomala bo‘lishi zarurligini o‘rgatadi.

Mirzo Ulug‘bekning merosi va qarashlari, bugungi kunda ham ilm-fan va madaniyat rivojiga hissa qo‘shishni xohlaydigan har bir inson uchun o‘rganish va ilhomlanish manbai bo‘lib xizmat qiladi.

### •**Ilm-fanga mehr**

Ulug‘bek ilm-fanga chuqur qiziqishi va bilimga bo‘lgan ehtiyoji bilan ajralib turadi. U o‘z davrida eng ilg‘or astronomik tadqiqotlarni olib borib, olimlar bilan yaqin aloqada bo‘lgan.

### •**Yetakchilik qobiliyati**

U samarqandlik hukmdor sifatida nafaqat ilm-fan, balki madaniyat va san‘at sohasida ham yetakchi bo‘lgan. Ulug‘bek o‘zining hukmronligi davomida Samarqandni ilmiy va madaniy markazga aylantirdi.

### •**Adolat va donoqlik**

Ulug‘bek adolatli va dono rahbar sifatida tanilgan. U xalqining farovonligi uchun kurashgan va o‘z atrofida yetuk ulamolarni to‘plagan.

### •**Innovatsion fikrlash**

U yangi g‘oyalar va usullarni qabul qilishga tayyor edi. Ulug‘bekning astronomiya va matematika sohasidagi yutuqlari, uning innovatsion fikrlash qobiliyatini ko‘rsatadi.

### •**Sivilizatsiyaga hissa**

Mirzo Ulug‘bek, nafaqat o‘z zamonasida, balki keyingi avlodlarga ham ilm-fan va madaniyat sohasida katta hissa qo‘shgan. U o‘z merosi bilan insoniyat tarixida muhim o‘rin tutadi.

Umuman olganda, Mirzo Ulug‘bek ilm-fan va san‘atga bo‘lgan muhabbati, rahbarlik qobiliyati va innovatsion yondashuvi bilan yodda qoladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

“Ulug‘bek va uning maktabi” -Ulug‘bek va uning ilmiy maktabi haqida ma’lumot beruvchi kitoblar.

“Astronomiya tarixida Ulug‘bek”

“Temuriylar tarixi”

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14098084>

**LIZING XIZMATLARI BOZORINING XUSUSIYATLARINI  
QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA QO‘LLANILADIGAN  
VOSITALARI**

**Kamalov Maqset Nizamatinovich,**

**Bekbauliev Ruslan Ismail uli,**

**Pirniyazov Abatbay Omirzakovich**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti.

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola Qoraqalpog‘iston Respublikasida lizing xizmatlari bozorining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Lizing iqtisodiyotning turli sohalarida, ayniqsa kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda muhim vosita sifatida ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu tadqiqot lizing xizmatlarini rivojlantirish va optimallashtirishga oid tavsiyalarni beradi.*

**Kalit so‘zlar:** lizing xizmatlari, kichik biznes, moliyaviy vositalar, davlat qo‘llab-quvvatlashi.

**ABSTRACT**

*This article focuses on examining the distinctive features of the leasing services market in the Republic of Karakalpakstan. Leasing is considered a crucial instrument in various sectors of the economy, particularly in the development of small and medium-sized businesses. This study offers recommendations for the advancement and optimization of leasing services.*

**Keywords:** leasing services, small business, financial instruments, state support.

## **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье основное внимание уделено изучению отличительных особенностей рынка лизинговых услуг в Республике Каракалпакстан. Лизинг рассматривается как важнейший инструмент в различных отраслях экономики, особенно в развитии малого и среднего бизнеса. В данном исследовании предлагаются рекомендации по совершенствованию и оптимизации лизинговых услуг.*

**Ключевые слова:** лизинговые услуги, малый бизнес, финансовые инструменты, государственная поддержка.

### **Kirish**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiyoti, boshqa O‘zbekiston hududlariga o‘xshab, kichik va o‘rta biznesning rivojlanishi bilan farqlanadi. Lizing xizmatlari bu sektor uchun muhim moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalaridan biridir. Lizing kompaniyalari ko‘rsatayotgan xizmatlar tadbirkorlar uchun moliyaviy yengilliklarni ta‘minlaydi va iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradi.

### **Tadqiqot Maqsadi**

Tadqiqotning asosiy maqsadi – Qoraqalpog‘iston Respublikasida lizing xizmatlari bozorining xususiyatlarini va lizing xizmatlarini rivojlantirish uchun foydalanilayotgan vositalarni aniqlashdir.

### **Metodologiya**

Ushbu tadqiqotda statistik tahlil, qiyosiy tahlil va anketalar yordamida ma‘lumotlar yig‘ildi. Lizing bozorining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning iqtisodiy o‘zgaruvchanliklarga ta‘siri ko‘rib chiqildi. Shu bilan birga, lizing xizmatlarining tadbirkorlarga foydasi hamda ularning iqtisodiy ta‘siri bo‘yicha tahlillar o‘tkazildi.

### **Natijalar**

#### Lizing Xizmatlarining Bozordagi Roli

Qoraqalpog‘iston Respublikasida lizing xizmatlari asosan qishloq xo‘jaligi va kichik biznes sektorlariga yo‘naltirilgan. Bu, ayniqsa, texnika va uskunalarni olishda

qulay vosita bo'lib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida samaradorlikni oshiradi.

### *Mahalliy Lizing Bozorining Xususiyatlari*

Lizing xizmatlarining rivojlanishiga ko'proq davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar va yengilliklar katta ta'sir qiladi. Qoraqalpog'istonda lizing xizmatlari asosan banklar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan kompaniyalar tomonidan taqdim etiladi. Ular, ayniqsa, kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda faollik ko'rsatmoqda.

### *Muammolar va Cheklovlar*

Mahalliy lizing xizmatlari bozorida bir nechta cheklovlar mavjud. Jumladan, qishloq joylardagi kichik tadbirkorlar uchun yetarlicha moliyaviy imkoniyatlar yo'qligi va lizing xizmatlarining turlari cheklanganligi muammolari uchraydi. Shuningdek, xodimlarning malakasini oshirish va xizmat sifatini yaxshilash zaruriyati ham mavjud.

### **Muhokama**

Qoraqalpog'iston Respublikasida lizing xizmatlarini yanada rivojlantirish uchun bir qancha tavsiyalar berish mumkin. Jumladan, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va lizing xizmatlarining ommaviyligini oshirish uchun davlat tomonidan qo'shimcha rag'batlantiruvchi dasturlar joriy etilishi zarur. Shuningdek, hududdagi tadbirkorlarning lizing xizmatlariga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun axborot kampaniyalarini o'tkazish ham foydali bo'ladi.

### **Xulosa**

Qoraqalpog'iston Respublikasida lizing xizmatlari bozori, kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun muhim moliyaviy vosita hisoblanadi. Bozorni rivojlantirish uchun davlat tomonidan rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Shu yo'sinda, hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev, O., & Karimov, R. (2019). O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda lizing xizmatlarining roli. O‘zbekiston Iqtisodiyot Jurnal, 4(2), 45-52.
2. Tashkent Finance Institute. (2020). Qishloq xo‘jaligi sohasida lizing xizmatlari: O‘zbekiston tajribasi. Agricultural Economics Journal, 3(1), 24-33.
3. Khudaybergenov, T., & Usmanova, N. (2021). Lizing xizmatlari va uning Qoraqalpog‘iston iqtisodiyotiga ta’siri. Qoraqalpoq Davlat Universiteti Ilmiy Jurnal, 5(1), 17-29.
4. Komilov, I. (2022). Lizing faoliyatini boshqarish va moliyaviy barqarorlik. Moliyaviy Menejment Tadqiqotlari Jurnal, 8(3), 59-66.
5. World Bank. (2019). Financial Solutions for SME Development in Central Asia. Retrieved from <https://www.worldbank.org/sme-development>
6. Ergashev, M., & Muminova, L. (2020). Lizing xizmatlari bozorining holati va rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiyot va Inovatsiya Jurnal, 6(3), 123-134.
7. Ganiyeva, D. (2023). Davlat tomonidan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va lizing xizmatlarining rivojlanishi. Davlat Moliya Jurnal, 9(2), 74-82.
8. Asian Development Bank. (2021). Enhancing Financial Inclusion through Leasing in Rural Areas. Available at <https://adb.org/leasing>



**TABLE OF CONTENTS**

Sr. No.	Paper/ Author
1	
	<b>Nematullaeva, M. R. kizi . (2024). THE ROLE OF TEACHING VOWEL SOUNDS IN PRONUNCIATION DEVELOPMENT. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(10), 4–10. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14041647">https://doi.org/10.5281/zenodo.14041647</a></b>
2	
	<b>Sattarova, S. B. (2024). A METHODOLOGICAL APPROACH TO LITERARY SELECTION FOR STUDENTS' CAPACITIES USING COMPUTATIONAL LINGUISTICS. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(10), 11–21. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14041674">https://doi.org/10.5281/zenodo.14041674</a></b>
3	
	<b>Sodiqova, R. D. qizi . (2024). MAKSUD SHEIKHZADE AND AYBEK. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(10), 22–25. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14041831">https://doi.org/10.5281/zenodo.14041831</a></b>
4	
	<b>Fayzullayeva, D. N. (2024). FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING MILLIY-MADANIY DUNYOQARASHINI IFODALOVCHI XUSUSIYATLARI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(10), 26–31. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14041843">https://doi.org/10.5281/zenodo.14041843</a></b>
5	
	<b>Ochilova, M. N. qizi . (2024). JURNALISTIKAGA JANR KERAKMI?. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(10), 32–35. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14041856">https://doi.org/10.5281/zenodo.14041856</a></b>
6	
	<b>Shakhakimova, M. T. (2024). INTEGRATING DIGITAL TECHNOLOGIES AND AI: PLATFORMS FOR ENHANCING FOREIGN LANGUAGES. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(10), 36–42. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14041879">https://doi.org/10.5281/zenodo.14041879</a></b>
7	
	<b>Abralova, Z. D., &amp; Jumayev, B. T. o'g'li . (2024). MAMLAKATIMIZDA XOTIN-QIZLARGA YARATILAYOTGAN SHART-SHAROITLAR VA QILINAYOTGAN ISLOHATLAR. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(10), 43–47. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14041889">https://doi.org/10.5281/zenodo.14041889</a></b>

8

**Yaxyoyeva, S. A. qizi . (2024). KUTUBXONADA BIBLIOTERAPIYANING O'RNI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(10), 48–52.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14041913>

9

**Xidirova, M. R. (2024). TOG'AY MUROD HIKOYALARIDA REALISTIK TASVIR. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(10), 53–59.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14041930>

10

**Xidirov, O. J. (2024). O'ZBEK TILI KORPUSIDA SO'Z BIRIKMALARINI SINTAKTIK TEGGLASH. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(10), 60–65.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14041954>

11

**Xidirov, O. (2024). TIL KORPUSIDA IFODALANGAN LINGVISTIK AXBOROT DASTURLARIDAN FOYDALANISH. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(10), 66–71. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14041967>**

12

**Ibrohimova, M. M. qizi ., & Murodov, U. N. (2024). MIRZO ULUG'BEKNING ILMYIY SARGUZASHTLARI. YULDUZLAR SARI YO'L. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(10), 72–76. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14097937>**

13

**Kamalov, M. N., Bekbauliev, R. I. uli ., & Pirniyazov, A. O. (2024). LIZING XIZMATLARI BOZORINING XUSUSIYATLARINI QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QO'LLANILADIGAN VOSITALARI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(10), 77–80.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14098084>